


## Xorazm viloyatida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi

2018/2019 o'quv yilining boshiga Xorazm viloyatida 91 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyat yuritmoqda. Ulardan akademik litseylar soni 5 tani va kasb-hunar kollejlari soni - 86 tani tashkil etdi.

2017/2018 yillar boshiga 93 ta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari mavjud bo'lib, ulardan 5 tasi akademik litsey va 88 tasini kasb-hunar kollejlari tashkil qilgan.


**100 %**



**Akademik litseylar**

**Kasb-hunar kollejlari**


### O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining 2016/2017 - 2018/2019 o'quv yillarida dinamikasi, birlik



2018/2019 o'quv yili boshiga o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarining umumiy sonidan akademik litseylar ulushi 5,5 % ni, kasb-hunar kollejlari esa 94,5 % ni tashkil etadi.

Akademik litseylarning ulushi 2016/2017 o'quv yili boshida 5,4%, kasb-hunar kollejlari esa 94,6% ni tashkil etgan.


## Hududlar kesimida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning soni, birlik (2018/2019 o'quv yili boshiga)



Xorazm viloyatida 2018/2019 o'quv yili boshiga 5 ta akademik litseylarda 3,9 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, 1,6 ming nafar o'quvchi ta'lim muassasalarini bitirdi. 2017/2018 o'quv yilining boshida esa 5 ta akademik litseylarda, 4,6 ming nafar o'quvchi tahsil olgan va 1,5 ming nafar o'quvchi bitirgan.



## Hududlar kesimida akademik litseylar o'quvchilari va bitiruvchilari soni, ming kishi (2018/2019 o'quv yili boshiga)



**Akademik litseylar, o'quvchilari va bitiruvchilari soni, birlik**  
(2018/2019 o'quv yili boshiga)

	Akademik litseylar soni	O'quvchilar soni	ulardan qizlar soni	Bitiruvchilar soni
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>5</b>	<b>3943</b>	<b>1685</b>	<b>1642</b>
<i>Urganch sh.</i>	4	3623	1480	1509
<i>Xazorasp tumani</i>	1	320	205	133

Akademik litseylar o'quvchilari orasida qizlarning ulushi 42,7%, o'g'il bolalar 57,3 % ni tashkil etdi. 2018 yilda bitirgan o'quvchilarning 54,9 % ni o'g'il bolalar, 45,1% ni qizlar tashkil etadi.

**Akademik litsey o'quvchilari kurslar bo'yicha taqsimlanishi**  
(2018/2019 o'quv yili boshiga)



2018/2019 o'quv yili boshiga akademik litseylari o'qituvchilari soni 283 kishini tashkil etdi, ulardan 62,5 % ini ayol o'qituvchilar tashkil etadi.

**Akademik litseylarda o'qituvchilar soni va ta'lim da'rajasi, birlik**  
(2018/2019 o'quv yili boshiga)

	O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz)	ulardan oliy ma'lumotlilar	Ayol o'qituvchilar soni	Bundan tashqari o'rindoshlar soni
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>283</b>	<b>3943</b>	<b>177</b>	<b>51</b>
<i>Urganch sh.</i>	261	3623	164	41
<i>Xazorasp tumani</i>	22	320	13	10

## 2018/2019 o'quv yili boshiga



86 ta  
kasb-hunar  
kollejlari




39,0 ming  
tahsil  
olayotganlar



28,5 ming  
bitiruvchilar


Xorazm viloyatida 2018/2019 o'quv yili boshiga 86 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritmoqda, ularda 39,0 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, 2018 yilda 28,5 ming nafar o'quvchi kasb-hunar kollejlari bitirdi.

## Hududlar kesimida kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va bitiruvchilari soni, ming kishi (2018/2019 o'quv yili boshiga)




### **Kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan o'quvchilarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi,% (2018/2019 o'quv yili boshiga)**

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari orasida qizlarning ulushi 51,7 %, o'g'il bolalar 48,3% ni tashkil etdi. 2018 yilda bitirgan o'quvchilarning 49,4 % ni o'g'il bolalar, 50,6 % ni qizlar tashkil etadi.



2018/2019 o'quv yili boshiga kasb - hunar kollejlari o'qituvchilari soni 2026 ta kishini tashkil etdi, ulardan 2003 nafari oliy ma'lumotli va 23 nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega.

2017/2018 o'quv yili boshiga kasb-hunar kollejlari 3441 nafar o'qituvchi qayd etilgan bo'lib, ulardan 3414 nafari oliy ma'lumotli va 27 nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan.



## Kasb-hunar kollejlarda o'qituvchilar soni va ta'lim da'rajasi, birlik (2018/2019 o'quv yili boshiga)

	O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz)	ulardan oliy ma'lumotlilar	Ayol o'qituvchilar soni	Bundan tashqari, o'rindoshlar soni
<b>Xorazm viloyati</b>	2026	2003	1219	513
Urganch sh.	558	549	360	101
Xiva sh.	311	305	222	106
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	121	121	66	50
Gurlan	110	106	67	21
Qo'shko'pir	111	111	61	34
Urganch	119	119	74	22
Hazorasp	218	218	100	43
Honqa	172	172	100	49
Xiva	60	60	34	30
Shovot	89	88	47	16
Yangiariq	100	100	58	28
Yangibozor	57	54	30	13